



## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Mustaqil tadqiqotchisi  
[esoliyev790@gmail.com](mailto:esoliyev790@gmail.com) tel:+998951518002*

**Anotatsiya.** Integrativ yondashuv zamonaviy ta'lif tizimida muhim ahamiyat kasb etib, turli fanlar, metodlar va yondashuvlarni yagona pedagogik jarayon doirasida birlashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarni muvozanatli rivojlanirish orqali ularning innovatsion kompetentligini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada, integrativ yondashuv asosida talabalarining innovatsion kompetentligini rivojlanirish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pryes formula, sinkveyn metodi, kreativlik, originallik, natijaviylik, motivatsiya, Smart metodi.

### МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

**Аннотация.** Интегративный подход приобрел большое значение в современной системе образования и предполагает интеграцию различных дисциплин, методов и подходов в рамках единого педагогического процесса. Данный подход направлен на формирование инновационной компетентности студентов посредством сбалансированного развития теоретических знаний, практических навыков и личностных качеств. В статье представлена информация о методике развития инновационной компетентности студентов на основе интегративного подхода.

**Ключевые слова:** формула Прайса, метод синквейна, креативность, оригинальность, эффективность, мотивация, метод Смарт.

### METHODOLOGY FOR DEVELOPING INNOVATION COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

**Abstract.** The integrative approach has gained importance in the modern education system and involves the integration of various disciplines, methods and approaches within a single pedagogical process. This approach is aimed at forming innovative competence in students through the balanced development of theoretical knowledge, practical skills and personal qualities. This article provides information on the methodology for developing students' innovative competence based on an integrative approach.

**Keywords:** Pryes formula, syncwine method, creativity, originality, effectiveness, motivation, Smart method.



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ta'lif-tarbiya berishda ta'lif jarayoniga innovatsion texnologiyalar va metodlarni qo'llash, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'quv fanlarni o'qitish ham o'ziga xoslikni talab etadi, o'quv adabiyotlarini yaratish va shu bilan bog'liq bo'lgan ta'lif mazmunini belgilashda, o'quv jarayonini tashkil etishda hamda o'qitishning samarali metodlarini tanlashda chuqur didaktik tahlil o'tkazish mumkin. Bugungi kunga kelib o'qitish tizimlarining har bir jabhasida ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarurati alohida dolzarblik kasb etayotganini sezish qiyin emas. Kundalik hayotimiz va istiqbolimiz ravnaqi uchun muhim ehtiyoj sanalmish tom ma'nodagi ta'lif tizimiga zamonaviy texnologiyalarni keng jalg etilishi tobora oldingi o'ringa chiqib borayapti.


## MAVJUD ADABIYOTLAR TAHLILI.

L.S. Vygotskiyning fikriga ko'ra, ta'lif jarayonida talabaning individual rivojlanish darajasiga mos yondashuvni qo'llash zarur. PRYeS-formula janubiy Afrikalik huquq professori Devid Makkoyd-Meyson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib 4 bosqichni o'z ichiga oladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYALARI.

Ta'lif kontentlaridan mohirona foydalanish talabalarga o'z innovatsion kompetetliligini rivojlantirishda zaruriy materiallarni to'plash bilan bиргаликда, ularning kasbiy muhitda raqobatbardoshligini oshiradi, Internet va jahon ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar bilan ishlashda talabaning mediasavodxonlik darajasini hamda individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalay olish malakasini belgilaydi.

1-rasm





## 2.2.1-rasm. Individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalash bosqichlari

Individual rivojlanish dasturi bo'lajak o'qituvchilarni norasmiy yoki informal shakldagi harakatlar dasturidir. Bu talabaning mutaxassis bo'lib shakllanishidagi rejalar va ehtiyoji asosida bevosita innovatsion kompetentlilikni rivojlantirishning individual yo'nalishi, ijodiy amalga oshirishning shaxsiy usulidir.

Bo'lajak o'qituvchilarni auditoriya va auditoriyadan tashqarida amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun zamonaviy metodlarni tanlashda ularning mezonlarini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Mezonlardan biri metodlarning didaktik qoidalarga mos kelishidir. Keyingi mezon esa, metodlar mazmunining talabalarni tarbiyalash, ta'lim berish va o'stirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda metodlarni tanlash uchun yordam baradigan ta'lim metodlarining o'zaro taqqoqlanishi ko'rctilgan.

### 1-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodlarini tanlash mezonlari.

Ta'lim metodlari	Metodlarning ta'limda samaradorligi (+), amaliy mashg'ulotlarda yutuqaizligi (-)					
	Shakllantirish				Rivojlantirish	
Suhbat	+	+	-	-	+	+
Muammoli izlanuvchan	-	-	-	+	+	-
Amaliy	+	+	+	+	+	+
Ko'rsatkich	+	+	+	+	+	-
Rolli	+	+	+	+	+	+
Ssenariy	-	+	+	+	+	+
O'qituvchi boshchiligidagi	+	+	+	+	+	+
Talabalarning	+	+	+	+	+	+



mustaqil ishlashi						
-------------------	--	--	--	--	--	--

### Sinkveyn metodi

Sinkveyn – bu ma'lum qoidalarga asosan tuzilgan 5 ta satrdan iborat bo'lgan she'rdir.

- 1 satr – mavzu nomi;
- 2 satr – bu mavzuni ikkita sifat bilan aniqlash;
- 3 satr – bu mavzu doirasidagi faoliyatni ko'rsatuvchi 3 ta fe'l;
- 4 satr – muallifning mavzuga munosabatini bildiruvchi 4 ta so'zdan iborat bo'lgan jumla;
- 5 satr – mavzu yakuni, ixtiériy so'z bo'laklarida ifodalangan birinchi so'z sinonimi.

Sinkveyn tuzish ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'rganilayotgan mavzuga o'z munosabatini bildirishni o'rgatadi. Quyida "kreativlik" so'ziga sinkveyn metodiga namuna keltirilgan.

#### Kreativlik

originallik, natijaviylik

faollikni talab etadi, yangi yechimlar taqdim etadi, noodatiy muhitni yaratadi shaxsning ijodiy qobiliyati

ijodkorlik

**SMART**-metodi. Bu metod ta'lim jarayonini axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari asosida onlayn tarzda tashkil etish imkoniyatini yaratib beradi. Bu metod dars jarayonida qulay joy va aniq vaqt asosida amalga oshirilishini ta'minlaydi. SMART quyidagi so'zlarning bosh harflaridan tashkil topgan. S-sresifisaniq, M-measurable-o'lchovli, A-achievable-erishiladigan, R-time bound – vaqt bo'yicha chegaralar kabi ma'nolarni o'zida ifodalaydigan ta'lim metodi hisoblanadi.

**PRYeS-formula** janubiy Afrikalik huquq professori Devid Makkoyd-Meyson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib 4 bosqichni o'z ichiga oladi: Position (pozitsiya), Reason (asoslash), Yexplanation/Yexample (misollar), Summaru (xulosa)

"Tarbiya" fani ishchi dasturida 2 soatga mo'ljallangan "Uzluksiz ta'lim tizimida "Tarbiya" faning joriy etilishi" mavzusidagi amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasini keltirib o'tamiz (2.3-jadval).

2-jadval.

### Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi faoliyati	Tinglovchi faoliyati
<b>1-bosqich. Motivatsion (10 minut)</b>	Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish tartibini ma'lum qiladi. Talabalarni guruhlarga ajratadi.	Mavzu yuzasidan o'qituvchi bilan fikr almashadilar
<b>2-bosqich. Faoliyatli (40 minut)</b>	Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar taqdimotini o'tkazadi; Kichik guruxlar tomonidan mavzuning mazmunini berilgan topshiriqlarning mustaqil o'zlashtiradilar. mazmunini mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi; Mavzuning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi; Har bir yangi tushuncha bo'yicha hosil qilingan bilimlarni tizimlashtirib boradi.	Talabalar kichik guruhlarda yangi mavzuning mazmunini mavzuning mustaqil o'zlashtiradilar.
<b>3-bosqich. Refleksiv-diagnostik (25-daqiqa)</b>	3.1. Mavzuni mustahkamlash uchun PRES-formula texnologiyasi qo'llaniladi 3.2. Tarqatma materiallardan foydalaniladi.	Tarqatma materiallar va PRES-formula texnologiyasi orqali mavzuga oid muammoli vaziyatlarni hal etadilar.
<b>4-bosqich. Yakuniy bosqich (5-daqiqa)</b>	4.1. Mashg'ulot yakunida guruhlar faoliyati baholanadi.	



**Qo'llanadigan ta'lif texnologiya va metodlar:** PRES-formula metodi, amaliy mashg'ulot va o'qitishning innovatsion texnologiyalari

**Mashg'ulotning o'tkazilishi**

1. Mavzuga oid bilimlarni faollashtiruvchi savollar beriladi.
2. Talabalar guruhlarda ishlaydilar.
3. Har bir guruh mavzuga oid bir savol bo'yicha PRES-formula metodi asosida jadvalni to'diradi.

PRES-formula tuzilishi jihatdan 4 ta muhim komponentni o'z ichiga oladi:

**P - Position** - pozitsiya. Berilgan muammo bo'yicha shaxsiy fikr bildirilishi lozim. Buning uchun quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin: «Men ishonaman...», «Menimcha, bu muammo e'tiborga loyiq / loyiq emas», «Men roziman...».

**R - Reason** - asoslash, o'z pozitsiyasini tushuntirish. Bu erda sizning fikringizni tasdiqlovchi barcha mumkin bo'lgan dalillarni keltirish kerak. Javob bo'sh so'zlar emas, balki asosli bo'lishi kerak. U o'r ganilayotgan kurs yoki mavzu bo'yicha fikrlarni ko'rsatishi, ta'riflar va tushunchalarni olib berishi kerak. Ushbu blokda asosiy savol - nima uchun shunday deb o'ylaysiz? Va bu «Chunki...» yoki «Chunki...» so'zlar bilan ochilishi kerakligini anglatadi.

**E – Explanation/Example** - misollar. Sizning so'zlaringizni tushunganingizning aniqligi va tasdiqlanishi uchun faktlarni keltirish kerak va ulardan kamida uchtasi bo'lishi kerak. Ushbu band talabalarning o'z pozitsiyalarining to'g'riligini amalda isbotlash qobiliyatini olib beradi. Misol sifatida, siz o'zingizning tajribangizdan, hatto uzoqdan ham, tarix yoki ijtimoiy fanlardan olingan bilimlardan ham foydalanishingiz mumkin. Asosiysi, ular ishonarli. Ushbu bosqichda ishlataladigan iboralar «Masalan...», «Men buni misol bilan isbotlashim mumkin...».

**S – Summary** - xulosa. Ushbu blok yakuniy bo'lib, unda belgilangan pozitsiyani tasdiqlovchi yakuniy xulosalar beriladi. Undagi jumlalarning boshlanishi quyidagicha bo'lishi mumkin: «Shunday qilib...», «Xulosa qilish...», «Shuning uchun...», «Aytilganlarga asoslanib, men shunday xulosaga keldim...».

Mazkur usul interaktiv qayta aloqa usuli bo'lib, uning tarkibiy qismlari o'quv muammosini tahlil qilish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash imkonini beradi.



Nazoratning an'anaviy test shaklidan farqli o'laroq, bu formula talabalar bilimidagi mavjud bo'shliqlarni va mavzu mohiyatini yanada aniqroq ochib beradi.

### TAHLIL VA NATIJALARİ.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi ta'lif jarayonida ko'p tomonlama yondashuvni talab etadi. Bu jarayon o'qituvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlashni, balki ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Mazkur metodika o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan. Unda integrativ yondashuvning ahamiyati o'quvchilar bilan ishlashda turli soha va fanlarni uyg'unlashtirish, shuningdek, mavzularni hayotiy misollar asosida tushuntirish orqali ifodalanadi. Shuningdek, bu metodika ta'lif berish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini ta'minlaydi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy kasbiy o'sishini ta'minlaydi, balki boshlang'ich ta'lif sifati va samaradorligini oshirish uchun muhim omil sifatida qaraladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zaripov L. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini kredit-modul tizimi asosida takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent, 2023. –166
2. Hasanova M.U., Jumanova M.G'. Kredit – modul tizimi va uning amaliyotga joriy etish tamoyillari (oliy ta'lif muassasalarida matematika o'qitishda). - «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. 264-270 betlar.
3. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув кўлланма. – Тошкент, ТКТИ, 2020. - 120 бет
4. Gilyazova A. Formirovanie professionalnoy kompetentnosti budushego pedagoga inostrannix yazikov. Uzluksiz ta'lif tizimida o'qituvchilarni sotsiolingvistik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2013 yil.
5. Serdyukova M.V. Pedagogicheskie aspekty gumanizatsii sotsialno-psixologicheskogo klimata studencheskoy gruppy vuza. Tekst nauchnoy stati po spesialnosti «Nauki ob obrazovanii» 2011.
6. Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy pedagogike: obuchenie na osnove issledovaniya, igri i diskussii. (Analiz zarubejnogo opita)— Riga: NPS «Eksperiment», 1995. – 176 s.



7. Raxmanov I. Integrasionnie tendensii v sovremennom mire i sotsialniy progress / Pod. red. M., 1989, b. 7.
8. Pak M.N. Iстория и историография Кореи // Избранные труды. – М.: Вост. литература, 2003. – 911 с.